

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

**“UMUMIY PSIXOLOGIYA”**

*fanidan kurs ishi mavzulari va uni bajarish bo'yicha*

**USLUBIY KO'RSATMA**

Bilim sohasi: 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lim sohasi: 210000 – Sotsiologiya va psixologiya

Ta'lim yo'nalishi: 5210200 – Psixologiya (umumiy psixologiya)



Fanning kurs ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmasi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

***Tuzuvchilar:***

<b><i>V.Yu.Ahrorov</i></b>	Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi
<b><i>M.S.Tovbayeva</i></b>	Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi
<b><i>M.I.Kushanova</i></b>	Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

***Taqrizchilar:***

***E.A.Iskandarov*** SamDChTI pedagogika va psixologiya kafedrasini dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi  
***M.I.Salaxutdinova*** SamDU psixologiya kafedrasini mudiri, dotsent

Fanning kurs ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmasi "**Psixologiya**" kafedrasining 2018 yil "   "            dagi "   "-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**                    dots. **M.I.Salaxutdinova**

Fanning kurs ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmasi "**Psixologiya va ijtimoiy fanlar**" fakulteti o'quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2018 yil                    dagi    -sonli bayonnoma)

**O'quv-uslubiy kengash raisi:**                    dots. **A.Samadov**

**Kelishildi:**

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i**                    **prof.A.Xalxo'jayev**

## KIRISH

Bugungi kunda umumiy psixologiya barcha fan sohalariga, barcha tashkilotlarga kirib borgan, chunki shaxs masalasi, uning tashkilotdagi o'rni muhim hisoblanadi. Har bir tashkilot, korxonada, o'quv maskanlarida shaxs kichik guruhlarda rasmi va norasmiy munosabatda bo'lib, ular bilan ziddiyatlarga bormasligi uchun ham mazkur kursni o'qitish muhim hisoblanadi.

Talabalarning olam, jamiyat va insonni o'rganishi psixologik bilimlarga zaruratning mavjudligi; ularning dunyoqarashini boyitish va rivojlantirishda psixologik qonuniyatlarni o'rganish ehtiyojining mavjudligi; inson psixologiyasining umumiy psixologik qonuniyatlarini, shaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami orasidagi munosabat, voqelikni anglashi, olamning psixologik tahlili, psixologik hodisalarning kechishi, psixologiyaning tarixiy va nazariy rolini jamiyatda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligini xarakterlaydi.

“Umumiy psixologiya” fanining mazkur uslubiy ko'rsatmasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda davlat ta'lim standartlari bo'yicha bakalavr darajasidagi malakali amaliyotchi psixolog mutaxassislar tayyorlash talablaridan kelib chiqib tuzilgan.

O'quv jarayonining uzluksiz jarayonlaridan biri – bu talabalarda mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni puxta egallashga qaratilgan kurs ishini bajarish hisoblanadi. Kurs ishini bajarish jarayonida talabalar olgan bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalari, jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy psixologik qonuniyatlari haqida; umumiy psixologiyaning fanlar tizimida tuzilishi, ularning rivojlanish istiqbollari haqida; umumiy psixologik tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish metodlari va uning vositalaridan foydalana olish; psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar; insonlarning ish qobiliyatini oshirish va funksional holatni optimallashtirishni bilishi va ulardan foydalana olishi; turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda umumiy psixologiyaning har xil usullarini qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish,

umumpsixologik ixtisoslik yo'nalishidagi fanlar bo'yicha bilimlarini kengaytiradilar, ixtisoslik bo'yicha adabiyotlarni chuqur o'rganadilar va o'zlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini mustaqil bajarish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Ushbu uslubiy ko'rsatma "Umumiy psixologiya" fani bo'yicha yangi namunaviy o'quv dasturi va o'quv rejasi asosida tuzilgan bo'lib, unda psixologiya ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning kurs ishini bajarishi davomida amal qilishi lozim bo'lgan umumiy tartib-qoidalar, me'yorlar, tegishli ko'rsatma va maslahatlar berilgan. Uslubiy ko'rsatmani ishlab chiqishda mualliflar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlash, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo'ygan.

## KURS ISHINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Kurs ishining maqsadi – talabani nazariy va amaliy tayyorgarligini aniqlash, uning fikrlash qobiliyatini va olingan bilimlarining chuqurliligini va sifatini belgilash hisoblanadi.

Kurs ishining maqsadidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- «Umumiy psixologiya» fanidan tanlangan kurs ishi mavzusi bo'yicha mavjud umumiy psixologik muammolar mohiyatini nazariy va amaliy asoslash va mazmunli yoritilishi;

- psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlarni tahlil qilish;

- umumiy psixologik tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish metodlari va uning vositalaridan foydalana olishi;

- turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda umumiy psixologiyaning har xil usullarini qo'llashi;

- insonlarning ish qobiliyatini oshirish va funksional holatni optimallashtirishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlarini, Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan umumiy psixologik muammolarga tegishli qonunlarni va Vazirlar Mahkamasi chiqargan me'yoriy hujjatlarni ishda o'zlashtirishi;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'l-yo'riq, xulosalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish.

- internet ma'lumotlari, hisobotlar va hujjatlarni tahlil qilish;

- Umumiy psixologiyaning nazariy va amaliy sohalarini optimallashtirishning ilmiy yo'nalishlarini tahlil qilish.

Kurs ishini bajarish jarayoni o'quv jarayonning ajralmas qismi bo'lib, uni to'g'ri tashkil etish yoritilayotgan mavzuning sifatli bayon etilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun kurs ishini bajarish davomida talaba o'z mehnatini quyidagi bosqichlar bo'yicha to'g'ri taqsimlashi katta ahamiyatga ega:

- kurs ishi mavzusini tanlash;
- axborot-uslubiy ta'minoti (adabiyotlar, internet) ma'lumotlarini yig'ish va ularni o'rganish;
- kurs ishi mavzusi rejasini tuzish;
- mavzuga oid turli ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash;
- kurs ishi matnini yozish;
- kurs ishini rasmiylashtirish;
- kurs ishi himoyasi;

Kurs ishini bajarishda talaba o'z ustida ishlashi bilan bir qatorda kurs ishi rahbari bilan maslahatlashishi va tegishli ko'rsatmalar asosida faoliyat ko'rsatishi zarur hisoblanadi.

### **KURS ISHI MAVZUSINI TANLASH**

«Umumiy psixologiya» fanidan kurs ishini muvaffaqiyatli bajarilishining muhim omili – bu talabaning o'z qiziqishi va qobiliyatiga qarab mos mavzuni tanlashi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu bosqichda talaba mavzu tanlashda sinchkov va mas'uliyatli bo'lishi lozim.

Kurs ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Mavzular soni talabalar sonidan ko'p bo'lishi kerak, ularning yo'nalishi o'quv dasturi doirasida va talabaning qobiliyati hamda imkoniyatlari darajasida bo'lishi kerak.

Kurs ishi mavzusi talabalarni nazariy bilimlarini mustahkamlashga va ijodiy fikrlashga qaratilgan bo'lishi bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib belgilanishi kerak.

Kurs ishi rahbari talabaga tanlangan mavzu bo'yicha kurs ishi topshirig'ini rasmiylashtiradi va kafedra mudiri tasdiqlagandan so'ng topshiriqni talabaga beradi.

Kurs ishi topshirig'ida talabaning ismi sharifi, mutaxassisligi, kurs, guruhi, fan nomi, kurs ishi mavzusi, topshirish muddati bilan bir qatorda namunaviy reja (kirish, asosiy qism, xulosa va boshqalar) hamda adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar va shu kabilar aks etishi lozim.

Kurs ishini bajarish jarayonida kurs ishi mavzusini o'zgartirish yoki boshqa mavzu tanlanishiga ruxsat etilmaydi.

Kurs ishi mavzusini tanlash tartibi guruh jurnalidagi ismi-sharifi raqami bo'yicha taqsimlanadi.

## **AXBOROT-USLUBIY TA'MINOTINI YARATISH VA ULARNI O'RGANISH**

Talaba kurs ishi mavzusini biriktirish to'g'risida ariza bergandan so'ng va kafedra uni tasdiqlagandan so'ng rahbar bilan maslahatlashib adabiyotlar to'plashiga kirishishi kerak. Bunda nafaqat darslik, balki boshqa fanlarni o'rganish davomida ko'rsatilgan adabiyotlar, statistik va internet ma'lumotlari, qonunlar, me'yoriy hujjatlar va boshqalarni ham o'rganishi lozim.

Undan so'ng ularning ichidan kurs ishi mavzusiga bevosita aloqador bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish va ularni topib bir qator tanishib chiqishi kerak, chunki boshlang'ich tanishuv natijasida talaba kurs ishi rejasini mustaqil ravishda tuzadi.

Adabiyotlar va internet ma'lumotlari bilan ishlashni mamlakatimizdagi ta'lim qonunchiligiga taalluqli bo'lgan qonun va me'yoriy hujjatlarni o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Har tomonlama mukammal yoritilgan va ilmiy ijodiy yondoshilgan kurs ishini bayon etish uchun iqtisodiy va tarbiyaviy, pedagogik qonuniyatlarni bilish va ularni qo'llash katta ahamiyatga ega.

Kurs ishini bajarishda faqat uslubiy qo'llanmalarda va kurs ishi topshirig'ida tavsiya qilingan adabiyotlardan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, imkoni boricha mustaqil holda tanlangan adabiyotlarga asoslanish lozim, hatto xorijiy adabiyotlardan ham foydalanish ish mazmuni boyishiga va yanada mukammal bajarilishiga yordam beradi.

## KURS ISHINING TUZILISHI

### Kurs ishi quyidagicha tuzilishga ega bo'lishi mumkin:

**1. Titul varag'i.** U quyidagi talablar asosida shakllantiriladi. Yuqorida – oliy ta'lim muassasasi va kafedra nomi, ta'lim yo'nalishi, varaqning o'rtasida fanning nomi hamda kurs ishining mavzusi, yana ham pastroqda chapdan talabaning familiyasi, ismi-sharifi, kursi hamda ilmiy rahbarning ilmiy daraja va unvoni, uning familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatiladi. Pastda – kurs ishi yozilgan yil qayd qilinadi (1-ilovalar).

**2. Mundarija,** bunda kurs ishining rejasi va uning bob, bo'limlari ko'rsatiladi. Mundarija kurs ishining tuzilishiga qat'iy mos bo'lishi, qisqa, lo'nda, ketma-ketlikda va aniq tarzda uning ichki mantig'ini ochib berishi zarur. Shuningdek, unda ishning har bir bobi va paragrafi qaysi sahifadan boshlanishi aniq ko'rsatiladi.

**3. Kirish.** Ishning bu qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning asosiy xarakteristikalarini (tadqiqotning muammosi, ob'yekti, predmeti, maqsad va vazifalari, gipotezasi) ko'rsatiladi.

Kirishda, shuningdek, tadqiqotning asosiy g'oyasi haqida ham ma'lumot beriladi. Bu qismda adabiyotlarga havolalar berish va, ayniqsa, ko'plab sitatalarni keltirish shart emas. Ishning kirish qismi A-4 formatli, 2-3 varaqdan iborat bo'lishi zarur.

Tadqiqotning asosiy xarakteristikalarini to'g'ri shakllantirilganligini bilish uchun quyidagi savollarga javob berishga harakat qilinishi kerak:

- tadqiqot muammosini aniqlashda – Oldin o'rganilmagan muammolardan qaysi birini o'rganish zarur?

- tadqiqot mavzusini tanlashda – Tadqiqot muammosi kurs ishi mavzusida o'z aksini topganmi?

- dolzarblikni asoslashda - Nima uchun aynan shu muammoni bugun o'rganish shart?

- tadqiqot ob'yektini belgilashda - Nima tekshiriladi?

- tadqiqot predmetini aniqlashda – Ob'yektning qaysi yangi jihatlari, munosabatlari, aspektlari, tomonlari, funksiyalari tadqiq qilinishi zarur?



- tadqiqot maqsadini shakllantirishda – Maqsadga erishish uchun nima qilish kerak? Amalga oshiriladigan vazifalar vositasida maqsadga erishish mumkinmi?

- tadqiqot gipotezasini ilgari surishda – Tadqiqot maqsadiga erishish uchun qaysi yo'ldan borish zarur?

- ochiq himoyaga olib chiqilayotgan holatlarni aniqlashda - Tadqiqotning obyekti va predmetida boshqalar sezmaganday xususiyatlar bor? va h.k.

Kurs ishi talabalarni pedagogik tadqiqotga jalb qilishning birinchi bosqichi bo'lganligi tufayli unda barcha xarakteristikalarini ko'rsatib berish shart emas. Ularning ayrimlarigina, xohishga ko'ra, aniqlashtirilishi mumkin (masalan, gipoteza). Xarakteristikalarini shakllantirish ilmiy rahbar malakasi, mahorati, talabaning tayyorgarligi, tadqiqot mavzuning xususiyati va boshqa vaziyatlarga bog'liq bo'ladi.

Kurs ishi mavzusini kelgusida chuqurroq, kengroq doirada o'rganib, uni bitiruv malakaviy ish sifatida davom ettirmoqchi bo'lgan talabalar tadqiqot ilmiy tuzilmasining barcha qismlarini jiddiy o'ylab ko'rishi zarur.

**4. Kurs ishining asosiy qismi** – rejadagi asosiy punktlarni o'z ichiga oladi. Unda tekshirilayotgan masalaning tarixi va nazariyasi ko'rsatiladi, mavjud adabiyotlarning tanqidiy tahlili beriladi, muallifning o'z nuqtai nazari bayon qilinadi. So'ngra mustaqil ravishda o'tkazilgan tadqiqotning metodlari, tashkil etilishi va natijalari bayon qilinadi.

Ishni mavzuga doir adabiyotlar bilan ishlashdan boshlash zarur. Bibliografik ma'lumotlarning 3 xil manbasi ajratiladi:

- a) birinchi (maqolalar, dissertasiyalar, monografiyalar va b.);
- b) ikkinchi (bibliografiya, referativ jurnallar, ilmiy axborot va b.);
- c) uchinchi (boshqa kitoblardan terib olib yozilgan asarlar, lug'atlar va b.).

Bibliografik (qayerda, qanday manbalarda zaruriy ma'lumotlar bor) va sof ilmiy – ma'lum bo'lgan bilimlar mazmunini bildiruvchi ma'lumotlarni farqlash kerak.

Kurs ishini yozish jarayonida sohaga oid ilmiy, ilmiy-pedagogik jurnallarni ko'rib chiqish zarur. Bunda jurnallarning yil uchun oxirgi sonida maqolalarning

mavzular bo'yicha ko'rsatkichi nashr qilinadi. Muayyan mavzular bo'yicha adabiyotlar tafsilotlari bilan tanishish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha ma'lumotlar yig'ish natijasida quyidagilarga ega bo'lish lozim:

a) kim va qayerda (qaysi ilmiy muassasa, markazlarda) tadqiqot mavzusi yuzasidan ishlagan va ishlamoqda?

b) ushbu ishlarning natijalari qaysi manbalarda e'lon qilingan?

c) mazkur natijalar nimalardan iborat?

Talaba tomonidan qo'lga kiritilgan ma'lumotlar yozma ravishda qayd qilinadi. Ularning uch turi mavjud.

*Birinchi materiallarga* bibliografik kartochkalardagi yozuvlar, sitatalar, mikrofilmlar, tadqiqot muammosiga doir alfavit katalog kiradi.

*Ikkinchi materiallar* ilmiy yoki metodik manbadagi ma'lumotlarni analitik-sintetik qayta ishlash natijasi bo'lgan yozuvlar, rejalar (sodda va murakkab), grafik-sxemalar, mustaqil ravishda tuzilgan predmet-ko'rsatkichlar, annotasiya, tezis, konspekt va boshqalardan iborat bo'ladi.

*Uchinchi materiallarda* birinchi va ikkinchi materiallar umumlashtiriladi. Uning mazmuni qisqa tafsilot ko'rinishida bo'lib, unda mavzuga doir oldindan ma'lum bo'lgan ilmiy dalillar, qonuniyatlar, nazariyalar, tushunchalar umumlashtiriladi.

Tafsilotni tuzishdan avval mavzuga doir asosiy tushunchalarni aniqlashtirish lozim. Chunki psixologiya fanida turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinayotgan atama va tushunchalar kurs ishining boshidan oxirigacha bir ma'noda tushunilishi zarur. Tushuncha va atamalar belgilanganidan so'ng ularning izohi quyidagi manbalardan aniqlashtiriladi:

a) ensiklopediyalar (masalan, psixologik, pedagogik, falsafiy va b.);

b) izohli lug'atlar: umumiy ("O'zbek tilining izohli lug'ati", 3 tomlik) va maxsus (masalan, psixologik, sotsiologik, pedagogik);

c) tadqiqot mavzusiga doir asosiy darsliklar va monografiyalarning mundarijasi hamda fani.

Tushunchalarning izohi topilganidan so'ng alohida varaqalarda qayd qilinadi va tahlil, qiyoslash, tasniflash, umumlashtirish usullari yordamida mazmunan qayta ishlanadi.

Tadqiqot mavzu bo'yicha tafsilot yozishda kamida 20 ta manbadan foydalanish zarurdir.

Ishdagi eng muhim nuqtalardan yana biri xulosalarni muhokama qilish jarayoni hisoblanadi. Bunda quyidagi savollarga javob topish zarur: Nima uchun shunday bo'ldi? Buning sabablari nimada? U yoki bu dalilni nima bilan izohlash mumkin? Ishning bu bosqichida boshqa mualliflar tomonidan olingan nazariy va amaliy xulosalarni jalb qilish, ya'ni ular bilan o'z shaxsiy xulosalarini qiyoslab, taqqoslab ko'rish, olingan ma'lumotlarni tushuntirish, izohlash zarur bo'ladi. Natijalar asosiy matnda qanday tartibda berilgan bo'lsa, ularni shu tartibda xulosalab ko'rsatish lozim.

Ish mantiqiy izchillikda, adabiy til normalarida yoziladi. Unda murakkab qo'shma gaplardan, shuningdek, o'ta jo'n tuzilgan sodda gaplarni ishlatish maqsadga muvofiq emas.

*Mening kuzatishimcha, men hisoblaymanki, mening fikrimcha* tarzida 1-shaxs birlik nomidan gapirish o'rniga *Bizning kuzatishimizcha, biz hisoblaymizki, bizning fikrimizcha* kabi iboralardan foydalanish ilmiy etiketga to'g'ri keladi.

Kurs ishini yozishda yagona uslub saqlanishi, hozirgi o'zbek adabiy tilining orfografik, sintaktik va stilistik me'yorlariga amal qilinishi lozim.

**5. Xulosa.** Bu qismida ishning muallif tomonidan ishlab chiqilgan asosiy natija va xulosalari keltiriladi: ularning amaliy ahamiyati, ish natijalarining joriy qilinish imkoniyatlari va mavzuni kelgusida tadqiq qilish istiqbollari ko'rsatiladi.

Xulosaga qo'yiladigan asosiy talab – uning qisqa va mulohazaliligidir: unda ishning mazmunini butunligicha qaytarish shart emas. Xulosa quyidagi savollarga javob bera olishi kerak:

- a) talaba nima uchun aynan ushbu tadqiqotni amalga oshirdi?
- b) qanday ishlar amalga oshirildi?
- c) muallif qanday xulosalarga keldi?

**6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.** Asarlar mualliflarining familiyasi ko'rsatilib, alvafit tartibida tuziladi.

Ro'yxatga muallif tomonidan ishni yozish jarayonida foydalanilgan barcha adabiyotlar kiritiladi (bunda ular qayerda nashr qilinganidan qat'iy nazar alohida nashr, to'plam, jurnal, gazeta bo'lsa ham albatta ko'rsatilishi shart).

Ro'yxatda manbalar umumiy raqamlashtirilgan holda keltiriladi. Manbaning ma'lumotlari ko'rsatilayotganida muallifning familiyasi-ismi, asarning nomi, nashr qilingan joyi va yili, sahifalarning umumiy soni beriladi.

Masalan:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 456 bet

2. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.

3. Лурья А.Р. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. – 320 с.

**7. Ilovalar.** Ular, odatda, alohida sahifalarda ko'rsatiladi. Ularning har biri o'z mavzusiga ega bo'ladi va o'ng tomonning yuqorisida "Ilova" degan yozuv qayd qilinadi. Agar ilovalar bir nechta bo'lsa, ular "1-ilova", "2-ilova" tarzida rasmiylashtiriladi.

Ilovaga mustaqil ravishda tuzilgan, anketalar yordamida yig'ilgan empirik materiallar joylashtiriladi.

Kurs ishiga rahbarlik pedagogik staj, tajribaga ega bo'lgan yoki ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan kafedra o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda yoziladi, bunda u ilmiy rahbar maslahatlaridan foydalanadi va ishining borishi yuzasidan rahbariga hisobot berib boradi.

Kurs ishining rahbari:

a) talabaga tanlangan mavzu doirasidagi masalalar va tadqiqot metodlarini aniqlashda, tayyorgarlik rejasini belgilash va kurs ishini shakllantirishda yordam beradi;

b) talabaga kurs ishi yozish jarayonida maslahatlar berib boradi, sistematik nazoratni amalga oshiradi, bosqichli attestasiyani o'tkazadi (semestrda ikki marta) va bu haqda kafedra rahbariyatiga xabar beradi;

c) kurs ishini tekshiradi va unga taqriz beradi.

Kurs ishining himoyasi ochiq ravishda o'tkaziladi. Muallif 10 daqiqa davomida ish yuzasidan ma'ruza qiladi va o'qituvchi-talabalarning savollariga javob beradi. Ma'ruzada muammoning o'rganilish holati, tajriba-sinov ishlarining natijalari (agar o'tkazilgan bo'lsa), tadqiqotning istiqboli, xulosa va takliflar aks etgan bo'lishi lozim.

Kurs ishini himoya qilish natijalariga ko'ra talabaning reyting daftarchasiga tegishli ball qo'yiladi.

Kurs ishi talabaga kelgusi tadqiqotlarida asos bo'lishi uchun qaytarib beriladi. Juda yaxshi ball va e'tirofqa ega bo'lgan kurs ishlari boshqa talabalarga namuna sifatida metodik xonada saqlanadi.

Quyidagi ayrim mavzular uchun reja tuzish tartibi misol tariqasida keltirilmoqda.

**Mavzu: Maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish faolligini shakllantirishning psixologik xususiyatlari.**

**Reja:**

**Kirish**

**I bob. Maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish faolligini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari**

1.1. O'smirlik davrining psixologik va fiziologik xususiyatlari

1.2. Maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish faolligini shakllantirishda buyuk ajdodlarimiz ilmiy qarashlaridan foydalanishning ahamiyati

**II bob. o'quv jarayonida maktab yoshidagi o'quvchilarning bilish faolligini shakllantirishning amaliy asoslari**

2.1. Maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faolligining ijodiy tafakkur bilan uyg'unligi

2.2. O'quv motivlari va ularning psixologik xususiyatlari

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

## **Mavzu: Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar iqtidorini o'rganishning psixologik xususiyatlari**

### **Reja:**

#### **Kirish**

#### **I bob. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar iqtidorini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari**

1.1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar iqtidorini aniqlashga doir nazariy yondashuvlar

1.2. Qobiliyatlar va uning turlari

#### **II bob. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar iqtidorining psixodiagnostikasi**

2.1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar iqtidorini aniqlash metodikalari

2.2. Bolalarda harakat va fikrlash jarayonlarini diagnostika qilish natijalari

#### **Umumiy xulosa**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Ilovalar**

### **KURS ISHI HIMOYASI**

Kurs ishi himoyasi kurs ishi bajarilishining yakuniy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Tugallangan kurs ishi belgilangan muddatda kafedraga tekshirish uchun topshiriladi. Past saviyada, sifatsiz bajarilgan ishlar, ilmiy rahbarning yozma taqrizi bilan ishdagi kamchiliklarni to'ldirish va qayta ishlash uchun talabaga qaytariladi. Belgilangan talablar darajasida sifatli bajarilgan ishlar ilmiy rahbar tomonidan kafedrada himoya qilish uchun ruxsat beriladi.

Kurs ishi himoyasi uchun har bir talabaga 5-10 daqiqa vaqt beriladi. Himoya jarayonida kurs ishi mavzusi doirasida savol va topshiriqlar berilishi mumkin.

Kafedrada kurs ishini himoya qilish uchun maxsus komissiya tuziladi. Komissiya tarkibida yetakchi mutaxassis, tajribali professor-o'qituvchilar va kurs ishi rahbari bo'lishi lozim, uning soni 2-3 kishidan ortmasligi kerak.

Kurs ishi himoyasi komissiya tomonidan baholanadi, so'ngra himoya yakuni bo'yicha komissiya qarori e'lon qilinadi. Kurs ishlari, qaydnoma va taqrizlar bilan birga kafedraga topshiriladi, so'ng saqlash uchun fakultet arxiviga ro'yxat asosida topshiriladi.

Namunali bajarilgan kurs ishlari talabalarning ilmiy ishlari ko'riklariga, tanlovlarga, internet saytlariga joylashtirishga tavsiya qilinishi mumkin.

Kurs ishida bayon qilingan ma'lumotlar va manbalardan talabalar tomonidan bitiruv malakaviy ishlarni yozish jarayonida foydalanilishi mumkin.

### **KURS ISHINI BAHOLASHNING REYTING MEZONLARI**

5210200 – Psixologiya (umumiy psixologiya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabari tomonidan kurs ishlari bajariladi. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan kurs ishi talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar kurs ishi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va kurs ishining boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kurs ishi kafedra professor-o'qituvchilaridan tashkil topgan komissiya oldida himoyadan o'tkaziladi. Kurs ishi natijasi 100 ballik tizimi bo'yicha baholanadi.

#### **Kurs ishini baholash mezoni**

<b>Maksimall ball (100%)</b>	<b>Saralash ball (55%)</b>	<b>Yakuniy reyting ball</b>	<b>Reyting natijasi</b>
100	55	86-100 71-85 55-70 0-54	“A'lo” “Yaxshi” “Qoniqarli” “Qoniqarsiz”

Kurs ishi himoyasi yuqori saviyada Nizom talablariga to'la rioya qilingan holda xolis va adolatli o'tkazilishi hamda baholanishi lozim.

Agar kurs ishi himoyasi vaqtida talaba ma'ruzani qila olmasa, malakaviy ishni mohiyatini ochib bera olmasa, mazmunini tushuntira bilmasa, mavzu bo'yicha berilgan savollarga javob bera olmasa hamda bir qator xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilsa, komissiya a'zolari tomonidan “qoniqarsiz” deb topilsa 0-54 ball oralig'ida baholanadi. Kurs ishi himoyasi natijalari komissiya tomonidan shu kunning o'zida e'lon qilinadi va bayonnomada qayd etiladi.

# **“UMUMIY PSIXOLOGIYA” FANIDAN KURS ISHI MAVZULARINING NAMUNAVIY TEMATIKASI**

## **1. “Psixologiyaga evolyusion kirish” bo’limi**

1. Tilning funksiyalari
2. Gapning asosi
3. Maymunlarda muloqot
4. Qushlarda muloqot
5. Cherks nazariyasi
6. Kyoller nazariyasi
7. Myuller nazariyasi
8. Torndayk nazariyasi
9. Aksepsiya fazasi
10. Hayvonlarda vaziyatlarni tadqiq qilinishi
11. Intellektual xatti-harakat fazalari
12. Intellektual xatti-harakatning rus olimlari tomonidan o’rganilishi
13. Psixikaning evolyusion bosqichi (A.N.Leontyev bo’yicha)

## **2. “Shaxs psixologiyasi” bo’limi**

1. Psixoanalizda shaxs muammosi.
2. Analitik psixologiyada shaxs muammosi.
3. Xorijiy psixologiyada ekstraversiya, introversiya.
4. A.Adler bo’yicha shaxs tushunchasi.
5. Shaxsga fiziologik yondashish.
6. G.Ollport bo’yicha shaxs muammosi.
7. Dj.Mid va rollar nazariyasi.
8. Shaxs konstruktleri psixologiyasi.
9. Xorijiy psixologiyada shaxs taraqqiyoti muammosi.
10. A.Maslou gumanistik psixologiya vakili.
11. Shaxsning ichki olami.
12. Qobiliyatlar.
13. Xarakter va temperament.
14. Shaxsning motivasiya sohasi.
15. Shaxsning munosabat konsepsiyasi.
16. Shaxsning ma’naviy dunyosi.
17. Shaxsning roli, statusi, pozitsiyasi.

## **3. “Ichki regulyasiya bo’limi**

1. Go’daklarning emosional rivojlanishi.
2. Motivasiyaning asosiy yondashuvlari
3. Emotsiyani eksperimental o’rganish
4. Qoniqqanlik motiv sifadi ( V. G. Aseyev, A. G. Kovalev, P. M. Yakobson).
5. Motiv va motivasiyaning sakkizta asosiy muammolari.
6. Xususiyatlar nazariyasida motivasiya (G.Ollport, R.B.Kettell, G.Myurrey)
7. A.A.Fayzullayev bo’yicha motivasiya jarayon bosqichlari.
8. Ichki tashkiliy motivasiyalar.



9. Xulq-atvorning situativ determinantlari
10. K.Levinning maydon nazariyasi.
11. Sotsial motivlar: affiliasiya va hokimiyat.
12. Pro- va antisosial motivlar.
13. Emotsiyaning namoyon bo'lishi.
14. Emotsiya va uning tabiatini yoritish.
15. Iroda nazariyalari.
16. Irodaning amaliy jihatdan o'rganish.
17. Motivasiyaning vaziyatli rivojlanishi.
18. Ustanovkaning tadqiq etilganligi.
19. O'zini o'zi baholash va motivasiya.
20. Motivlarning individual farqlari
21. Motivasiyaning keng tarqalgan modellari
22. Iroda va uning mezonlari.
23. Xulq-atvorning irodaviy boshqaruvi.

#### **4. "Sezgi va idrok psixologiyasi" bo'limi**

1. Sezgililar va ishlab chiqarish jarayoni.
2. Psixofizika va psixofiziologiya.
3. Inson amaliy faoliyatida psixofizika.
4. Insonning olamni idrok etishi.
5. Illyuziya va ustanovka.
6. Idrokning individual xususiyatlari.
7. Idrok ko'lamini.
8. Idrok va reklama
9. Idrok patologiyasi

#### **5. "Diqqat va xotira psixologiyasi" bo'limi**

1. Diqqatning fiziologik mexanizmlari
2. O'quvchi diqqatini rivojlantirish
3. Diqqatning psixologik nazariyalari
4. Diqqat samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar
5. Diqqat xususiyatlari
6. Diqqatning rivojlanishi
7. Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqati
8. Diqqat va iroda
9. Diqqat patologiyasi
10. Diqqat yetishmaslik sindromi
11. Diqqatning nazorat funksiyasi
12. L.S.Vigotskiyning diqqat borasidagi izlanishlari
13. Diqqat turlari klassifikatsiyasi
14. Diqqat va oriyentirovka refleksi
15. Diqqatning neyrofiziologik mexanizmi
16. Xotira va tajriba
17. Xotiraning psixofiziologik nazariyasi

18. A.R. Luriyaning xotiraga doir tadqiqotlari
19. Xotiraning motor nazariyasi
20. Xotira va ta'lim jarayoni
21. Mnemotexnika
22. Xotira samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar
23. Xotira turlari
24. Fenomenal xotira
25. A.A. Smirnovning xotirani o'rganishga doir izlanishlari
26. Xotirani eksperimental o'rganish
27. Xotira va tasavvur timsollari
28. Xotira va gipnoz
29. Xotira va diqqat
30. Kasbiy faoliyat va xotira

### **6. "Tafakkur va nutq psixologiyasi" bo'limi**

1. Tafakkur vujudga kelishining biologik asoslari
2. Tafakkurning mehnat faoliyatida vujudga kelishi va rivojlanishi
3. Ibtidoiy tafakkur
4. Tafakkurning krossmadaniy tadqiq etilishi
5. Tafakkurni rivojlanish bosqichlari
6. Ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli tafakkur
7. Tafakkur va xayol
8. Tafakkur tipologiyasi
9. Tafakkur rivojlanishining asosiy bosqichlari
10. Tafakkur va nutqni munosabatlarini psixofiziologik misollar asosida aqliy jarayonlarning obyektiv indikatorlarga ajratish
11. Tafakkurni differensial psixologik o'rganish va intellektual testlar
12. Kreativlikni o'rganish testlari
13. Shakkantiruvchi eksperimentda tafakkurni o'rganish
14. Ijodiy topshiriqlarni yechishning samarali yo'llari
15. «Aqliy hujum» metodi va uning tatbiq etish
16. Tafakkur va nutq tahliliga asosiy yondashuvlar
17. Tafakkur va nutq genetik ildizlari ( L.S. Vigotskiy bo'yicha)
18. Tushunchaning psixologik o'rganishning o'ziga xosligi
19. Ilmiy va hayotiy tushunchalarning hosil bo'lishi va ularning rivojlanish yo'llari
20. Kognitiv psixologiyada tushunchalar shakllanishini tadqiq etish
21. Til va ong munosabatlari

## **AXBOROT USLUBIY TA'MINOT**

### **Rahbariy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Yagonamsan muqaddassan, Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go’zal O’zbekistonim”. Mustaqillikning 23 yilligiga bag’ishlangan ma’ruza. Xalq so’zi, 2014 yil 1 sentabr.
2. Karimov I.A. Asarlar to’plami. 1-21 jildlar. – Toshkent: O’zbekiston, 1996-2013.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish yo’lini izchil davom ettirish – tarraqiyotimizning muhim omilidir. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza// Xalq so’zi, 2013 yil 7 dekabr.
4. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O’zbekiston”, 2011. – 440 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag’ishlangan Sammiti yalpi majlisidagi nutqi // Xalq so’zi, 2010 yil 22 sentyabr.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O’zbekiston, 2017. – 102 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: O’zbekiston, 2016. – 98 b.

### **Asosiy adabiyotlar**

9. Davletshin M. va b.q. Psixologiya: izohli lug’at. – T.: O’qituvchi, 1996.
10. Davletshin M.G., Shoumarov G’.B. O’zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari qisqacha bayoni. – T., 1993 y.
11. G’oziyev E. G’. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent., 2010.
12. G’oziyev E. G’. Umumiy psixologiya. – Toshkent., 2010.
13. Karimova V., Akromova F. Psixologiya. – T.: O’qituvchi, 2000.
14. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. –T., 1994 yil
15. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. –T., 1999 yil.
16. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012
17. Sog’inov N.A, Habibullayev F.A. Oilani o’rganish psixodiagnostika metodikalari. – T., 1996 yil.

18. Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологии: учеб.пособие для студ.высш.учеб.заведений. – 5-е изд., стер. – М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 2010. – 511 с.

19. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. – 320 с.

20. Ярошевский М. Г. История психологии. – М., 2012.

21. Марцинковская Т.В. История психологии. М., 2002

22. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.

23. Schiffman H.R. Sensation and Perception: An Integrated Approach. 5<sup>th</sup> Edition. – John Wiley & Sons, 2001. – 608 p.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

24. Deyl Karnegi. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 224 bet.

25. G'oziyev E. Psixologiya muammolari. – T.: O'qituvchi, 1996 yil.

26. G'oziyev E. Psixologiya. (Yosh davrlari psixologiyasi). – T., 1992 yil.

27. G'oziyev E.G'. Psixologiya. -T., O'zMU «Universitet», 2003.

28. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent: Universitet ,1990.

29. G'oziyev E.G'. Xotira psixologiyasi. -ToshDu , 1994.

30. Hayot kitobi: Yoshlar uchun ensiklopedik qo'llanma. – T.: Sharq, 2011, – 272 bet.

31. Андреев О.А. Тренируем свое внимание /Серия «психологический практикум».-Ростов н/Д: «Феникс», 2004.-232 с.

32. Андреев О.А. Тренируем свою память/ Серия «психологический практикум».-Ростов н/Д: «Феникс», 2004.-224 с.

33. Васильев И. А., Магомед-Эминов М. Ш. Мотивация и контроль за действием. М., 1991.

34. Гальперин П. Я., Кабыльницкая С. Л. Экспериментальное формирование внимания. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1999.

35. Гибсон Дж. Экологический подход к зрительному восприятию. М: Прогресс, 1988. 462 с.

### **Internet resurslari**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.google.uz](http://www.google.uz)

[www.referat.uz](http://www.referat.uz)

[www.koob.ru](http://www.koob.ru)

[www.Psychology.ru](http://www.Psychology.ru)

[www.flogiston.ru](http://www.flogiston.ru)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**5210200 – PSIXOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI**

**«UMUMIY PSIXOLOGIYA» FANIDAN**

**«MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR IQTIDORINI  
O'RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI» MAVZUSIDAGI**

# KURS ISHI

**Bajaruvchi: 4-bosqich talabasi Avulxairov Firdavsiy**

**Ilmiy rahbar: o'qituvchi Voris Ahrorov**

Kurs ishi psixologiya kafedrasida bajarildi.

**Kafedra mudiri:**

**dots. M.I.Salaxutdinova**

Kurs ishi kafedraning 2018-yil 18-iyundagi majlisida himoya qilindi va \_\_\_\_\_  
foizga baholandi.

**Komissiya raisi:**

\_\_\_\_\_

**A'zolari:**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Samarqand – 2018**

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Kurs ishining maqsad va vazifalari.....	5
Kurs ishi mavzusini tanlash.....	6
Axborot uslubiy ta'minotini yaratish va ularni o'rganish.....	7
Kurs ishining tuzilishi.....	8
Kurs ishi himoyasi.....	14
Kurs ishini baholashning reyting mezonlari.....	15
“Umumiy psixologiya” fanidan kurs ishi mavzularining namunaviy tematikasi...	16
Axborot uslubiy ta'minot.....	19
Ilova.....	22

**V.YU.AHROROV**  
**M.I.KUSHANOVA**

## **«SOTSIAL PSIXOLOGIYA»**

*fanidan kurs ishi mavzulari va uni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma*

*2018-yil \_\_-mayda original-maketdan  
bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1,16. "Times New Roman"  
garniturasida. Ofset qog'ozi. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 1,5. Nashriyot hisob tabog'i 1,5.  
Adadi 100 nusxa. \_\_\_\_-buyurtma*

---

*SamDU bosmaxonasida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.*

